Xusanov Bahodir Ergashevich
Namangan davlat pedagogika instituti rektori

ESTETIK TARBIYA KLASTERIDA TA'LIM PARADIGMALARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10600432

Annotatsiya. Ushbu maqolada estetik tarbiya klasterida ta'lim paradigmalari bayon etilgan bo'lib, estetik tarbiya klasteri tuzilmasi, maqsadi va vazifalari, bosqichlari, muammolari hamda asosiy yo'nalishlariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, estetik tarbiya, paradigma, klaster, tarbiya klasteri.

Inson ma'naviy olamni asosan uch soha orqali o'zlashtiradi aql-idrok, iroda-ixtiyor va his-tuyg'u (ingliz faylasufi Karl Leybnis nazariyasi). Bu sohalar insonning falsafiy, mantiqiy, axloqiy, estetik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, iroda-ixtiyorni o'rganish – axloqshunoslik (etika)ning, aql-idrokni o'rganish - mantiq (logika)ning, hiss-iyotni o'rganish esa nafosatshunoslik (estetika)ning zimmasidadir.

"Estetik tarbiya" iborasini olmon faylasufi Fridrix Shiller o'zining "Estetik tarbiya to'g'risida maktablar" (olmoncha Über die ästhetische Erziehung des Menschen in einer Reihe von Briefen) nomli asarida qo'lladi. Asarda Shiller ham dramaturg, ham shoir, ham faylasuf sifatida estetika masalalarini, ayniqsa estetik tarbiya bilan bog'liq o'z davri uchun yangi bo'lgan nazariyalarni ilgari surdi [Johann Christoph Friedrich von Schiller. Über die ästhetische Erziehung des Menschen in einer Reihe von Briefen]. Chunonchi u risolada "Tafakkur qiluvchi va his etuvchi insonni tarbiyalash uchun avvalo, uni estetik jihatdan tarbiyalash lozim" deydi [1].

Faylasuf Abdulla Sher olmon faylasufi Fridrix Shillerning estetik tarbiya haqidagi mulohazalarini taxlil qilar ekan, uni "jamiyatni o'zgartirishni istaydi, lekin u inqilobiy o'zgarishlarga qarshi"- degan fikrni ta'kidlaydi [2]. Shillerning nazdida inqilob, - deydi faylasuf - avvalo, axloqsizlik, u asrlar mobaynida qaror topgan axloqiy tamoyillarni ag'dar-to'ntar qilib tashlaydi; qolaversa, u nafosatga qarshi – inson tabiati uyg'unligini buzadi, narsa mavjudligi tabiiy tartibining muqaddasligini va go'zalligini parchalab yuboradi. Shu bois jamiyatni qayta qurishdan avval insonni qayta qurmoq lozim. Buni esa shaxsning uyg'un rivojlanishini go'zallik vositasidagi tarbiya orqali amalga oshirish mumkin. Shiller uchun go'zallik – hodisaga aylangan erkinlik.

Fan falsafasiga oid kitoblarda "paradigma – ma'lum davr mobaynida olimlar jamoasiga ilmiy muammolarni qo'yish, yechish hamda tadqiq etish metodlarini aniqlash uchun namuna bo'lib xizmat qiladigan konseptual qolip yoki poydevoriy g'oyalar (prinsiplar) tizimidir."- deb izohlanadi [3].

Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, mustaqillikning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, ta'limning ma'rifiy qadriyatlarini yaratish, shuningdek, mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishda tarbiya klasteri ijobiy natija beradi. Buni quyidagi paradigmalar asosida izohlash mumkin:

Birinchi paradigma – ta'lim muassasalarida estetik tarbiyani tashkil etish va boshqarish jarayonini talabalar ishtirokida amalga oshirish. Bunda "Yuqori kurslar quyi kurslarga ta'lim – fan – tarbiyada namuna (yadro) bo'lishi zarur" degan tamoyilga asoslanuvchi mexanizm muhim o'rin tutadi. Mazkur tamoyil avvalo, ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta'minlashga, yutuqlarni ommalashtirishga, tarbiyani vorisiyligini saqlashga xizmat qiladi. Qolaversa, yadro hisoblangan yuqori kurs tajribasi yordamida quyi kursni tarbiyalashga erishiladi. Bunda mos ta'lim yo'nalishlarining bir-biri bilan

bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldiruvchi tarbiyaviy ishlarini tarmoqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Globallashuv davrida estetik bilimlar doirasi shu qadar kengayib bormoqdaki, u deyarli barcha sohalarda masalan, sog‘liqni saqlash tizimida – tibbiyot estetikasi, ekologiya sohasida – ekologik estetika, texnikaviy taraqqiyot sohasida – texnika estetikasi (dizayn)ning yuzaga kelgani shular jumlasidandir. Shu bilan bir qatorda, jamiyat ma’naviy hayotini yuksaltirish ham estetika fani oldiga qator vazifalarni qo‘ymoqda. Shuningdek, hozirda “ommaviy madaniyat” hodisasi eng avvalo, milliy nafosatga zarba berib, jamiyatning g‘oyaviy tizimini izdan chiqarishi bilan hatarli ekanligini anglash uchun ham estetik bilim zarur. Bunday havf-xatarga qarshi qatiy tura oladigan shaxsni shakllantirishda tarbiyaning estetik ko‘rinishini uyg‘un xolda olib borish maqsadga muvofiq.

Ta’lim muassasalarida estetik tarbiyani tashkil etish va boshqarish jarayonini talabalar ishtirokida amalga oshirish paradigmasi tarbiya klasterlarida quyidagi tamoyillar ustuvorligini taqazo etadi:

talaba bo‘lajak pedagog (abiturient uchun);

eshitdim-ko‘rdim-bajardim (1-kurslar uchun).

bir ziyoli – o‘n besh talabaga ma’naviy ustoz (2 kurslar uchun)

o‘rganamiz-o‘rgatamiz (3-kurslar uchun).

talaba talabaga – ustoz, talaba talabaga – shogird (4-kurslar uchun).

Ushbu tamoyillarni hayotga joriy etish va ommalashtirishda - a) “onlayn volontyor-pedagoglar” harakatini rivojlantirish; b) “mobil guruhi” (har bir ta’lim yo‘nalishi uchun alohida)ni tuzish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish; v) “Yosh mutaxassislar” guruhini tuzish; g) bitiruvchilar bilan muntazam aloqa o‘rnatish, ularning imkoniyatlaridan foydalanish o‘zining ijobi samarasini beradi. Bu esa «tarbiya klasteri» yordamida talabalarda quyidagi fazilatlarni namoyon qilish imkoini beradi:

1-kurslarda – sadoqat, mafkuraviy immunitet, halollik, qatiyatlilik.

2-kurslarda – tashkilotchilik, nomuslilik, holislilik, bag‘rikenglik.

3-kurslarda – innovatsion fikrlash, yaratuvchanlik, tadbirkor pedagoglik, mehnatsevarlik, g‘amxo‘rlik.

4-kurslarda – mas’uliyatlilik, irodalilik, fidoiylik, tashabbuskorlik.

Ikkinchi paradigma - tarbiya klasteri va ta’lim amaliyoti uyg‘unligi. Buning uchun ta’limning axloqiy mazmunini boyituvchi aniq maqsadga yo‘naltirilgan manfaatli hamkorlik zarur. Bu hamkorlik talabalarning o‘quv, ishlab chiqarish va malaka amaliyotidagi eskirgan usullaridan hamda boqimanda kayfiyatdan mutlaqo voz kechgan holda “Amaliyot – talabaning faol ish kuni” bo‘lishini ta’minlaganda ijobiy samara beradi. Zero, o‘quv amaliyoti tarbiyaviy jihatdan mustahkam bo‘lgandagina o‘z samarasini beradi. Yanada soddaroq aytganda, agar o‘qituvchi talabaga darsni yaxshi tushuntirsa, ilmiy masalaning mohiyatini to‘laqonli tahlil qilib bersa, uni fanga, predmetga qiziqtira olsa va shu orqali talabaning dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytirishga erishsa shuning o‘zi tarbiyaning amaliyotdagi takomilidan dalolatdir. Bunda ta’lim – maqsad, tarbiya – zaruriyat, amaliyot – vosita, o‘qituvchi – tashkilotchi, talaba - natija omili bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, ta’limda o‘qituvchi talabaga yaxshini yomondan, halolni haromdan, to‘g‘rini egridan, bir so‘z bilan aytganda, oqni qoradan ajratib, oqilonasini tanlashga o‘rgatiladi. Shunday ekan, avvalo, amaliyot (praktika)ga borayotgan talabalarning ma’naviy dunyoqarashi orqali ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy muhitga ta’sir ko‘rsatishga erishish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1059-sonli Qarorida «ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni

zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga karshi sog‘lom dunyokarashni shakllantirish» masalasi Konsepsiyani amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan [4].

Uchinchi paradigma - “Tarbiya klasteri” nazariyasi evolyusiyasida talabalarni foydali mehnat va qo‘shimcha kasb egallashga yo‘naltirishga qaratilgan fundamental tavsifni alohida ko‘rsatish mumkin. Bugungi kunda talabalarning o‘z mutaxassisliklarini puxta egallashi uchun munosib sharoit yaratish, bandligini ta’minlash bilan birga ularda ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish, ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, tashabbuslarini rag‘batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlashda samarali natija beradi. Biroq, bu “talabaning stipendiyasidan yoki o‘quvchilarning ota-onalari hisobidan jamg‘armani ko‘paytirish” degan almisoqdan qolgan aqidaga emas, balki egallagan kasbi, mutaxassisligi, bilimi, malakasi yordamida qo‘shimcha daromad topish va undan moddiy manfaat ko‘rishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishdir.

Estetik bilimning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, ular orasida eng dolzarbi sayyoramizda nafosatga asoslangan estetosfera muhitini yaratish bilan bog‘liq. Chunki texnogensivilizatsiya davrida texnika, texnologiya, umuman noosfera insonning yashash muhitiga aylanib qolgan. Binobarin, insoniyatning tabiiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari kengayib borayotgan bir davrda ularning estetik muhitga ehtiyojlari ortib bormoqda. Shuni ham ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda Internetdan foydalanuvchilar soni kam bo‘lsada, global tarmoqda ishlash yoshlar tomonidan juda qisqa fursatlarda o‘zlashtirilib olinmoqda. Biroq, yoshlarning qaysi veb saytlardan foydalanishi g‘oyaviy tarbiya masalasida katta ahamiyatga ega. Bu borada belgiyalik professor Frenk Tevisson tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Yevropa mamlakatlarida 90 foiz talabalar Internetdan foydalanishar ekan. Ammo, ularning qaysi saytdan foydalanishlarini o‘rganilganda, atigi 10 foiz talaba bevosita o‘quv jarayoniga taalluqli saytlarga, 90 foizi esa, asosan pornografik mazmundagi saytlarga kirishni xush ko‘rishi ma’lum bo‘lgan [5].

To‘rtinchi paradigma - «raqamli tarbiya» mexanizmlarini yaratish. Bunda tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligi va samaradorligi bo‘yicha baxolash mezonlari (indikatorlari) ni aniqlash, estetik muhitni yaratish vositalarini modernizatsiya qilish, iste’dodli va tashabbuskor talabalarning imkoniyatlaridan foydalangan holda “talaba + o‘qituvchi + ota (ona) + maktab + mahalla” ko‘rinishdagi omillarning klaster tuzilmasidagi hamkorligini yaratish maqsadga muvofiq.

Estetika fani insonning kundalik hayotiga g‘oyatda yaqin. Chunki, erkin, demokratik jamiyatimizning har bir a’zosi go‘zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bo‘lishlari, haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlashlari, «ommaviy madaniyat»ning g‘ayriestetik xususiyatlarini rad qila olishlari lozim. Buning uchun esa ta’lim tizimida estetika faniga bo‘lgan hozirgi munosabatni tubdan o‘zgartirish zarur. Chunki, jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalarida estetika fanini o‘qitish masalasiga jiddiy e’tibor qaratiladi. Birgina Garvard Universitetida (AQSh) estetika bo‘yicha 3 ta markaz, 18 ta yo‘nalishda (bu yo‘nalishda estetika sohasiga doir 46 ta fan o‘qitiladi) ilmiy tadqiqot hamda ta’limiy ishlar olib borilayotganligi, Oksford Universitetida (Angliya) esa “Estetika” fakulteti mavjudligi va unda shu sohaga doir 66 ta fan o‘qitilishi estetik bilimlarga bo‘lgan e’tibor katta ekanligidan dalolat beradi.

Estetik tarbiya ma’naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida inson ma’naviy va jismoniy olamining uyg‘un tarzda rivojlanishiga ulkan xissa qo‘shadi.

Estetik tarbiyada insonning tashqi

ESTETIK TARBIYA KLASTERI TUZILMASI					
ASOSIY MAQSAD					
tarbiyaning tarkibiy qismlarini birlashtirish					
ASOSIY VAZIFALAR					
tarbiya izchilligini ta'minlash			uzluksiz tarbiya vositalari aloqadorligini mustahkamlash		
pedagogga xos fazilatlarni tasniflash			tarbiya samaradorligi bosqichlarini birlashtirish		
tarbiya omil va vositalarini aniq maqsadga yo'naltirish			tarbiyaviy yondoshuv va tasavvurlarni umumlashtirish		
shaxs tarbiyasi resurslarining integratsiyalashuvi					
BOSQICHLARI					
monitoring-tahlil	tushuntirish-o'rgatish	nazorat-boshqarish	tartibga solish	talab qilish	
SHAKLLANADIGAN FAZILATLAR					
fidoiylik	vatanparvarlik	halollik	qatiyatlilik	mas'uliyatlilik	tashabbuskorlik
MAVJUD MUAMMOLAR			**MUAMMOLAR OQIBATIDA**		
Tarbiya nazariyasi tarbiya amaliyotiga mos emas			Kitobda boshqa-yu, hayotda boshqa" degan ishonchsiz tasavvur shakllanadi		
Tarbiya tizimining strategik mazmuni tor, taktik mazmuni cheklangan			Kundalik (tekuchka) ishlar bilan o'ralashib, muhim masalalarga e'tibor susayadi. Tadbirbozlik ko'payadi.		
Tarbiyasizlik uchun qo'llanadigan qatiy chora yoki normativ-huquqiy asos yo'q			Loqaydlik, bepisandlik va beparvolikni keltirib chiqaradi		
Tarbiyaning oliy ta'limga xos bo'lgan yaxlit mezoni mavjud emas			Samaradorligi ahamiyatsiz sohaga aylanadi		
Tarbiyalash metodlari va mexanizmlari eskirgan			Zamonaviy tarbiyani o'zlashtirish va ko'nikish qiyin kechadi		
Ta'lim mazmuni tarbiya mazmuniga nomutanosib			Ta'lim bilan tarbiya, pedagog bilan talaba o'rtasida g'ayriaxloqiy to'siqni yuzaga keltiradi		
Ilmiy asoslangan tarbiya amaliyoti tajribasi mavjud emas			Tarbiya faqat didaktik ko'rinishda, qiyosiy, tanqidiy, tahliliy va ilmiy asoslangan tarbiyaga rag'bat susayadi		
Tarbiyaviy ishlarda bir xillik, shablonlik, turg'unlik ustuvor			Tarbiyalashning mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini anglamaslik, his qilmaslikka olib keladi		
Mutaxassislik mazmuni va talabiga mos tarbiya tizimiga ega emas			Bir xil tarbiya metodikasi madaniy tadbirlardan zerikish va begonalashishni kuchaytiradi		
Talabaning faoliyati uchun zarur bo'lgan muhim axloq normalari ishlab chiqilmagan			Maqsadsiz va foydasiz ko'rsatmalar ko'payadi		
ASOSIY YO'NALISHLAR					
Ma'naviy yo'nalishda	**Ma'rifiy yo'nalishda**		**Tadbirkorlik yo'nalishida**	**5 muhim tashabbus yo'nalishida**	
qadriyatlar targ'iboti	to'garak		ko'rgazma	mega-loyihalar	
ajdodlar merosi	mahorat darsi		yarmarka	targ'ibot aksiyalari	
davr qahramonlari	metodik manba		biznes student ledi	intellektual tanlovlar	
ilmiy-anjuman	seminar-trening		o'quv kurslari	ijtimoiy himoya	

ko‘rinishi, uning jamoat orasida o‘zini tutishi, jismoniy baquvvat bo‘lishi ham katta ahamiyatga ega. Shubhasiz, yuksak did ma’lum darajada kishining estetik tarbiya ko‘rganidan dalolat beradi. Shu bois, ma’naviyatni yuksaltirishda estetik tarbiyaning zaruriyatini quyidagicha izoxlash mumkin.

- globallashuv jarayonida inson tabiatida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni optimallashtiradi.

- ma’naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida mavjud tahdidlarga qarshi inson go‘zalligini har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi.

- estetik tarbiyaning asosida insonning hayotga bo‘lgan ijodiy munosabati yotadi, bu ijodiylik fetish estetikaning avj olishini oldini oladi;

- insonning estetik didini tarbiyalash orqali uning g‘ayriestetik jarayonlarga munosabati shakllanadi.

Ushbu mulohazalarimizga tayanib, tadqiqotimizda estetik tarbiya klasteri tuzilmasi ishlab chiqildi.

KUTILADIGAN NATIJA

- talabalar o‘rtasida o‘zaro muloqot va hamkorlik mustahkamlanadi;

- pedagog kasbiga mos tarbiya tizimi shakllanadi;

- mas’ulliyatni his qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasi shakllanadi;

- pedagog kasbiga mos tarbiyaning metodik bazasi yaratiladi;

- ta’lim muassasalari uchun «Tarbiya» fani bo‘yicha tayanch metodik manba yaratiladi;

- ma’naviy tarbiya indikatorlari optimallashadi;

- milliy va zamonaviy tarbiya metodika bilan boyitilgan “Fazilatli avlod”, “Pedagog odobi”, “Muomala madaniyati” kabi fanlar shakllanadi;

- tarbiya klasteri doirasida o‘qituvchilarni tayyorlashning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratiladi;

- talabalarda foydali mehnatga oqilona munosabatni shakllantirish orqali hunarmandchilik, tadbirkorlik va ishbilarmonlik ko‘nikmalari hosil qilinadi;

- pedagogik ta’limga xos tarbiyaviy tamoyillarning natijadorligiga erishiladi;

- talabalarning tarbiyaviy ishlarga qamrovi kengayadi;

- ta’lim va tarbiya uzviyligini ta’minlashga erishiladi;

- talabalar ishtiroki va qamrov ko‘payadi.

Ushbu tuzilma bir tomondan estetik tarbiyaning yangi klasterlarini yaratish imkonini bersa, ikkinchi tomonidan estetik ta’lim va estetik dunyoqarashdagi mavjud muammolarnining aniq va maqsadli yechimini tadqiq etish strukturaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шиллер Фридрих. Собрание сочинений в 7 т. Т.6. М., ГИХЛ, 1957.

2. Абдулла Шер. Эстетика. -Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2014, -267 б.

3. Назаров қиём. Жаҳон фалсафаси қомуси. Иккинчи жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, “Маънавият” нашриёти, 2023. -52 б.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. 2019 йил 31 декабр, 1059-сон.

5. Нисневич Ю.А. Информация и власть. – М.: Мысль, 2000. -С. 139-143.